

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.12.2019. Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

SAFAROV ALIJON ITOLMASOVICH

**HARBIY JURNALISTIKA TARAQQIYOTIGA KOMMUNIKATIV
HODISALARNING TA’SIR ETISH OMILLARI**

10.00.09 – Jurnalistika

filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**
**Contents of dissertation abstract of the doctor of science (DSc) on philological
sciences**

Safarov Alijon Itolmasovich

Harbiy jurnalistika taraqqiyotiga kommunikativ hodisalarning
ta'sir etish omillari
.....

Сафаров Алижон Итолмасович

Факторы влияния коммуникационных явлений на развитие военной
журналистики.....

Safarov Alijon Itolmasovich

Factors of influence of communicative events on the development of military
journalism

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.30/30.12.2019. Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

SAFAROV ALIJON ITOLMASOVICH

**HARBIY JURNALISTIKA TARAQQIYOTIGA KOMMUNIKATIV
HODISALARNING TA’SIR ETISH OMILLARI**

10.00.09 – Jurnalistika

filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.1. DSc/Fil967 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.uzjoku.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Halim Saidov**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yusuf Hamdamov**, filologiya fanlari doktori, professor

Amrullo Karimov, filologiya fanlari doktori, dotsent

Akmal Qodirov, harbiy fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.30/30.12.2019. Fil.14.01 raqamli Ilmiy ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; email:

journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (Manzil: 100147, Toshkent shahri. Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; email: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sherzodxon Qudratxo'ja
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor

Farruxbek Olimov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d.

Nozima Muratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d.(DSc), dotsent

KIRISH

(DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Globallashtirilgan dunyoda axborot jamiyatining ishlab chiqarish kuchiga, bitmas-tuganmas xomashyolardan biriga tobora aylanib bormoqda. Yigirmanchi asrning oxirlarida kommunikatsiya jarayonini yangi darajaga olib chiqqan axborot urushi fenomeni davlatlarning milliy xavfsizligiga jiddiy tahdid sola boshladi. OAVning kommunikativ makon dinamikasini belgilovchi, siyosiy tuzum xarakterini aks ettiruvchi vositaga aylana borishi davlat, jamiyat va shaxs uchun yangi-yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, media vositasida geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi hamda “axborot urushlari” olib borilayotgani oqibatida urush, harbiy nizo, tartibsizlik va g‘alayon o‘choqlari paydo qilinmoqda. Bunday sharoitda harbiy jurnalistikani rivojlantirish, ekstremal holatlar bilan bog‘liq kommunikativ omillarning sohaga ta’sirini o‘rganish xalqaro amaliyotda muhim va dolzarb ekanligi ta’kidlanmoqda.

Dunyoda harbiy jurnalistika tadrijiy rivojida kommunikativ omillarning o‘rni, harbiy nizolarda kommunikativ hodisalarning muhim tamoyillari, urush va tinchlik sharoitida, ziddiyatli vaziyatlarda axborotning ijtimoiy ahamiyati borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, harbiy to‘qnashuvlarning kommunikativ fenomen sifatidagi xususiyatlarini, jangovar harakatlar mediatizatsiyasida kommunikativ strategiyaning o‘ziga xosliklarini aniqlash, harbiy axborot almashinuvida ijtimoiy institutlarning o‘rnini o‘rganish bilan bog‘liq yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda harbiy harakatlar teatri xususiyatlaridan kelib chiqib, Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ustuvor vazifalarni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida izchil davom ettirishga yurtimizda alohida e’tibor qaratilmoqda. Negaki, “...Hozirgi vaqtda, dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to‘qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o‘ta murakkab vaziyatda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma’naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda”¹. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, O‘zbekiston harbiy jurnalistikasi evolyusion rivojiga qurolli to‘qnashuvlar bilan bog‘liq kommunikativ hodisalarning ta’siri, harbiy nizolar sharoitida kommunikativ hodisalarning o‘rni, mamlakat mudofaa siyosatida axborotning ijtimoiy ahamiyatiga oid tendensiyalar, zamonaviy yondashuvlarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish zarurati kuchaymoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 2 fevraldagi PF-5653-son “Axborot sohasi va

¹ Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Қуrollи Кучлари ташкил этилганининг 33 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан байрам табриги. <https://president.uz/uz/lists/view/7812>. Мурожаат вақти: 06.04.2025.

ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Ziddiyatli vaziyatlar, qurolli to‘qnashuvlarda harbiy jurnalistikaning o‘rni va ahamiyati, muammolari, harbiy jurnalistika rivojlanishi, taraqqiyotiga ta‘sir etishning muhim omillari, matbuot nazariyalari bilan bog‘liqligi, axborot tarqatishda ob‘ektivlik masalalari, axborotni olish, qayta ishlash borasidagi tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Военный университет имени князя Александра Невского; Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова; Санкт-Петербургский Гуманитарный университет профсоюзов; Воронежский государственный университет; University of Glasgow; Institute for War & Peace Reporting; Anadolu Agency (AA); Center for Global Peace Journalism (USA); University of Illinois; Dominican University (DU); Казахский национальный университет имени аль-Фараби; O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti; O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Harbiy jurnalistikaning demokratik jamiyat rivojida o‘rni, rivojlanish omillari, konfliktologiya bilan integratsiya jarayonlari, ekstremal vaziyatlar, xususan qurolli to‘qnashuvlar fonidagi dinamik o‘zgarishlarini ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar asosida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: harbiy soha va xavfsizlik masalalarining jurnalistikaga integratsiya qilinishining ilmiy-amaliy jihatlari o‘rganilgan (Военный университет имени князя Александра Невского); harbiy operatsiyalarni anglashda jamoatchilikka yordam berishga qaratilgan tahlil va innovatsion usullar, tadqiqotlar olib borilgan (Institute for War & Peace Reporting); qurolli nizolar sharoitida harbiy jurnalistlar malakasini oshirishning amaliy jihatlari asoslangan (Anadolu Agency (AA)); harbiy sohani yoritishda axborot xizmatlarining ahamiyati o‘rganilgan (Казахский национальный университет имени аль-Фараби); harbiy jurnalistikaning

² Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шархи: <http://vumo.mil.ru>; <https://msu.ru>; <https://www.gup.ru>; <http://www.vsu.ru>; <https://www.gla.ac.uk>; <https://iwpr.net>; <https://www.aa.com.tr/en/newsacademy/war-journalism>; <https://www.peaceinsight.org/en/organisations/center-for-global-peace-journalism>; <http://www.press.uillinois.edu>; (University of Illinois Press); <http://www.dom.edu>; <https://farabi.university/university>; <https://www.uzswlu.uz/>; <https://uzjoku.uz/uz> ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

rivojlanish tendensiyalari asoslab berilgan (O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti), ekstremal vaziyatlarda jurnalist faoliyati bilan bog‘liq muammolar tadqiq etilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti).

Globalashuv davrida harbiy jurnalistika amaliyotida shakllangan tendensiyalarni, qurolli to‘qnashuv, ekstremal sharoitlarda harbiy jurnalist faoliyatidagi o‘ziga xos jihatlarni, media makonda harbiy jurnalistikaning rivojlanish jarayonlarini o‘rganish borasida qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: harbiy jurnalistika istiqboliga raqamli texnologiyalarning ta‘sirini o‘rganish; urush, qurolli to‘qnashuvlar jarayonida jurnalist etikasidagi o‘zgarishlarni tadqiq qilish; harbiy nizolarda dezinformatsiya, feyk, “nafrat tili” va targ‘ibot masalalarini o‘rganish; harbiy mojarolardagi jurnalistlarning psixologik aspektlarini tadqiq qilish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda harbiy jurnalistika tarixiy aspektlari, ziddiyatli, favqulodda vaziyatlarda harbiy jurnalist faoliyatining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq mavzularda Z.Saidov, T.Ernazarov, A.Akbarov, N.Abdiazizova, K. Normatov, P.Agapov, B.Do‘stqoraev, X.Do‘stmuhammad, R.Shamsutdinov, N.Qosimova, N.Xamaev, D.Sagatov, D.Ro‘ziqulov, R.Djumaev ilmiy tadqiqotlar olib borishgan³.

MDH davlatlarida V.Amirov, T.Xasanova, A.Sitsinov, A. Rojkov, M.Pogorelskiy, I.Safranchuk, N.Volkovskiy, V.Elbakyan, I.Panarin kabi olimlar zamonaviy harbiy jurnalistika, harbiy harakatlar hududida jurnalist faoliyati, axborot urushida harbiy jurnalistikaning o‘rni bilan bog‘liq masalalarda tadqiqotlarni amalga oshirgan⁴.

³ Саид З. Танланган асарлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б.208. Эрнazarov Т., Акбаров А. История печати Узбекистана, –Т.: Укитувчи, 1976. – С.247. Абдуазизова Н. Тошкент матбуоти. - Т.: Академия, 2010. – Б.186. Normatov K. Национальная советская военная печать в годы Великой Отечественной войны 1941-1945 гг. : на опыте прессы народов республик Средней Азии и Казахстана : диссертация ... доктора исторических наук : 07.00.10. - Москва, 1987. - с.355. Agapov П. Военная печать Туркестана в годы гражданской войны (1918-1920 гг.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Т., 1967. –С. 27. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б.380. Дўстмухаммад Х. Халқаро журналистикада гуманитар ҳуқуқ ва касб этикаси. -Т.: Perfect print, 2011. -Б.144. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари (иккинчи китоб). – Т.: Академнашр, 2017. – Б.736. Қосимова Н. Зиддиятли вазиятларда журналистика. -Т.: Ўзқитобсавдонашриёти, 2020. – Б.254. Хамаев Н. Ўзбекистон ҳудудида истиқлол учун қуролли ҳаракат ва унга қарши курашнинг матбуот саҳифаларида тарғиб этилиши (1918–1934 йиллар). дисс. автореф. 07.00.01.-Т.2020.-Б.53. Сагатов Д. Ўзбекистон матбуотида фавқулодда вазиятлар мавзусининг ёритилиши: ёндашув, муаммо ва маҳорат. дисс. автореф. 10.00.09.-Т.2022.-Б.46. Рўзиқулов Д. Ҳарбий журналистикада ахборот интеграциясининг назарий ва амалий хусусиятлари. Монография. –Т.2024.-Б. 150. Джумаев Р. Конфликтология. Монография. -Тошкент.2018. - Б. 298.

⁴ Амиров В. Российская журналистика вооруженных конфликтов: современные практики и тенденции развития. Специальность 10.01.10 – Журналистика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. –Екатеринбург. 2021. –С.47. Хасанова Т. “Специфика освещения в СМИ локальных вооруженных конфликтов и инициатив по их урегулированию (на примере Республики Таджикистан)”. Монография. -Душанбе, 2021. -145с. Цицинов А. Феномен военной журналистики в социополитическом дискурсе (xviii – xxi вв.). 10.01.10–журналистика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.- М.2022.–С.22. Рожков А. Тенденции развития военной печати Республики Казахстан. 10.01.10–журналистика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.-М.2022.–С.22. –Алмати. 1998. –С.32 (Ред.-сост. Погорельский М., Сафранчук И. Современная военная журналистика: опыт, проблемы, перспективы., - М.: Гендальф, 2002. – С.253; Волковский Н.Л., Военная журналистика русского зарубежья/ Журналистика русского зарубежья. СПб., 2004.; Элбакян В., Справочник для журналистов, работающих в районах военных

Xorijda Yan Chji, Tyan Yuexun, A.Toffler, Philip Seib, Kevin Williams, C.Beauregard, A.Canuel, J.Coutard, P.Knightley, M.Ferro, R.MacArthur, R.Keeble, D.Wolton kabi xorijiy mutaxassis va tadqiqotchilar harbiy jurnalistika amaliyotida shakllangan tendensiyalarni tahlil qilish, qurolli to‘qnashuv, ekstremal sharoitlarda harbiy jurnalist faoliyati, media makonda harbiy jurnalistikaning rivojlanish jarayonlarini ilmiy-nazariy o‘rganish kabi muammolarga e‘tibor qaratishgan⁵.

Shu bilan birga, O‘zbekiston harbiy jurnalistikasi evolyusion rivojiga kommunikativ hodisalar ta’siri, harbiy to‘qnashuvlar sharoitida kommunikativ hodisalarning o‘rni, mamlakat mudofaa siyosatida axborotning ijtimoiy ahamiyati yetarlicha o‘rganilmagan va umuman tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Mass-media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari” amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston harbiy jurnalistikasi tarixi, tadrijiy rivojida kommunikativ hodisalarning o‘rni, harbiy nizolarda kommunikativ hodisalarning muhim omillari, mudofaa siyosatida axborotning ijtimoiy ahamiyati, **ziddiyatli vaziyatlardan media mahsulot tayyorlashda** jurnalist mahorati va faoliyatining o‘ziga xosligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

harbiy jurnalistika taraqqiyotida kommunikativ makonning ahamiyatini o‘rganish;

Turkiston muxtoriyati va mustabid hukumat o‘rnatilishida milliy va harbiy nashrlarning g‘oyaviy ta’sirchanlik masalasini tadqiq qilish;

harbiy ziddiyatning ilmiy-nazariy asoslari hamda yuzaga kelish mexanizmlarini o‘rganish;

harbiy to‘qnashuvlarning kommunikativ fenomen sifatidagi xususiyatlarini aniqlash;

jangovar harakatlar mediatizatsiyasida kommunikativ strategiyaning o‘ziga xosliklarini tadqiq qilish;

harbiy siyosatning yoritilishida jurnalistning fuqarolik mas’uliyati ahamiyatini o‘rganish;

действий. М.: 2002.; Панарин И. Н. Информационная война и дипломатия / И. Н. Панарин. М.: Городец, 2004. -С.526.

⁵Ян Чжи, Тянь Юехун. Современная журналистика Китая: вечерняя пресса, региональное радио. – Минск, 2011. – С.254. Toffler A. and H. War and anti-war. Survival at the dawn of the 21st century. - London, 1993.- P.302. Philip Seib. Media and conflict in the twenty-first century, New York. 2005. Kevin Williams. A new history of war reporting. – London. 2020.

Claude Beauregard, Alain Canuel, Jerome Coutard, Les medias et la guerre – de 1914 au World Trade Centre, Editions du Meridien, Montreal, 2002; Philip Knightley, The First Casualty – the War Correspondent as Hero & Myth-Maker from the Crimea to Iraq, Johns Hopkins, Baltimore, 2004; Marc Ferro, L’information en uniforme, Ramsay, Paris, 1991; John R. MacArthur, Second Front – Censorship and Propaganda in the Gulf War, Hill & Wang, New York, 1992; Richard Keeble, Secret State, Silent Press – New Militarism, the Gulf and the Modern Image of Warfare, University of Luton Press, Luton, 1997; Dominique Wolton, War game – L’information et la guerre, Flammarion, Paris, 1991

harbiy axborot almashinuvida ijtimoiy institutlarning o'rnini tadqiq qilish;
mudofaa siyosati targ'ibotida media obrazlarni shakllantirishning muhim prinsiplarini ishlab chiqish;

ziddiyatli vaziyatlardan reportaj tayyorlash va axborot manipulyatsiyasini o'rganish;

harbiy nizo matnlarida "nafrat tili" qo'llanilishining muhim aspektlarini tahlil qilish;

ekstremal holatlarda axborot olishda jurnalist huquq va majburiyatlarining o'ziga xos ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida "Vatanparvar", "Xalq so'zi", "Sarbaz", "Красная звезда" gazetalari, Turkfront nashrlarining harbiy nizolar va ziddiyatlar bilan bog'liq faoliyati belgilangan.

Tadqiqotning predmetini bosma nashrlardagi urush, qurolli to'qnashuv, ekstremal vaziyatlar bilan bog'liq kontentlar tahlili, ziddiyatli vaziyatlarda ijtimoiy axborot almashinuvining muhim prinsiplari, media materiallarning manipulyativ jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari tarixiy-qiyosiy, jurnalistik kuzatuv, kontekstual tahlil, statistik tahlil singari metodlardan iborat bo'lib, ular xronologik va tizimlilik tamoyiliga asoslangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Chor Rossiyasi mustabid siyosati, qizil armiyaning milliy ozodlik harakatini bostirish bilan bog'liq jangovar harakatlari mediatizatsiyasida Turkistonga nisbatan "strategiya – diskreditatsiya, taktika – ayblov" formulasida media materiallar berilgani aniqlangan;

OAVning ijtimoiy institut sifatidagi ta'sir funksiyasi mahsuli bo'lgan jangovar harakatlar mediatizatsiyasi nizolashayotgan tomonlarning jamoatchilik ongini boshqarishga qaratilgan kommunikatsiyaviy modeli ekanligi dalillangan;

harbiy nizolarda axborot-targ'ibiy ta'sir ob'ektlari tasniflanishi natijasida OAV va davlat institutlari uchun muayyan strategiyani amalga oshirishning axborot-targ'ibiy ta'minot konsepsiyasi isbotlangan;

urush, qurolli to'qnashuv, ziddiyatli vaziyatlarda mudofaa siyosati targ'ibotiga qaratilgan media obrazlar transformatsiyasi "targ'ibot-qahramon yaratish-dushmani qoralash" sxemasida shakllangani dalillangan;

qurolli to'qnashuvlarda jurnalistning muayyan g'oya, mafkurani psixologik ta'sir vositasida singdirishi natijasida ijtimoiy fikrning sust reaksiyasiga olib keladigan passiv manipulyatsiya, yashirin, aldamchi, zo'ravonlik taktikasi bilan agressiv reaksiyaga sabab bo'ladigan aktiv manipulyatsiya aniqlangan;

harbiy nizoni yoritayotgan jurnalist matnda qo'llaydigan "nafrat tili" ning zoomorf metaforaga asoslangan g'ayriinsoniy, qarg'ishga asoslangan g'ayriaxloqiy aspektlari, stereotip va yorliqlar yopishtirilgan, qo'rquv va g'azab hosil qiladigan, dushmanga umumiy ayblovlar taqalgan ijtimoiy aspektlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti harbiy jurnalistika magistratura bosqichi talabalari uchun "Mudofaa siyosatida harbiy OAVning o'rni", "Harbiy jurnalistikaning ilmiy nazariy asoslari", "Harbiy

jurnalistikaning rivojlanish tamoyillari” “Harbiy jurnalistikaning media makondagi o‘rni”, “Harbiy jurnalistikada huquqiy omillar” kabi fan dasturlari va sillabuslari, ma’ruza, taqdimot materiallari ishlab chiqilgan hamda ta’limga tatbiq etilgan;

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti harbiy jurnalistika bakalavriat bosqichi kunduzgi va sirtqi yo‘nalishi talabalari uchun “Harbiy jurnalistikada ixtisoslashuv”, “Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi”, “Harbiy jurnalistikada konvergensiya”, “Jadidlar publitsistikasida mudofaa masalasi”, “Harbiy jurnalistikada stringerlik” “Harbiy jurnalistikada boshlovchilik mahorati”, “Harbiy jurnalist ijod maktabi”, “Axborot urushida jurnalist faoliyati” kabi fan dasturlari va sillabuslari, ma’ruza, taqdimot materiallari ishlab chiqilgan hamda ta’limga tatbiq etilgan;

O‘zbekistonda Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik masalalari, ekstremal vaziyatlarni o‘rganish va ijtimoiy axborot almashinuvini ta’minlash maqsadida mustaqil tadqiqotlar olib boradigan nodavlat institutini tashkil etish asoslangan;

Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentida O‘zbekistonning mudofaa siyosatini, mudofaa sanoatidagi yangilanishlarni, jangovar tayyorgarlik, armiyadagi modernizatsiya, ma’naviyat, madaniyat masalalarini, dunyoda kechayotgan muhim harbiy-siyosiy voqeliklarni yoritadigan, podkastlar orqali muhokama qiladigan internet nashrini tashkil etish taklifi berilgan;

O‘zbekistonda harbiy jurnalistikaning tarixiy aspektlari, o‘ziga xosligi, mustamlaka va sho‘ro davrida Turkistondagi (O‘zbekistonda) harbiy nashrlar, mustaqillik davrida harbiy jurnalistika taraqqiyoti bilan bog‘liq ilmiy, amaliy, tashkiliy jarayonlar, harbiy jurnalistika rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlar haqidagi ma’lumotlar qamrab olingan “Harbiy jurnalistika” nomli so‘zlik tayyorlangan;

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “Harbiy va sport jurnalistikasi” kafedrasining Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti “Vatanparvar” Birlashgan tahririyatidagi “Harbiy jurnalistika” bo‘limida harbiy sharhlovchilar klubini tashkil etish bo‘yicha tavsiya berilgan;

harbiy jurnalistikaga ixtisoslashuv masalasi bo‘yicha “Harbiy jurnalistikada yangiliklar va reportyorlik mahorati” nomli darslik, “Harbiy jurnalistika asoslari”, “Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi”, “Harbiy jurnalistikada ixtisoslashuv”, “Mudofaa siyosatida harbiy OAVning o‘rni” nomli o‘quv qo‘llanmalari, “O‘zbekistonning ikkinchi jahon urushi davri harbiy jurnalistikasi” nomli antologiyasi, “O‘zbekiston harbiy jurnalistikaning shakllanish va rivojlanish tamoyillari” nomli monografiya, “Ixtisoslashgan jurnalistika” (9-jild), “O‘zbekiston jurnalistikasi antologiyasi” nomli ilmiy-ommabop nashrlar chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma’lumotlarning olingan natijalar bilan mos kelishi, nazariy qarashlar va xulosalar nazariyotchi olimlarning fikrlari bilan asoslangani, tadqiqot natijalarining xalqaro hamda mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi,

shuningdek, tajribalarning tahlili va natijalarining sifat jihatidan ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati harbiy jurnalistikaning shakllanish va rivojlanish tendensiyasi, jamiyatning demokratlashuvida axborot janrlarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar va shart-sharoitlar asoslab berilganligi, harbiy jurnalistika bo'yicha xorijiy tajribalar qiyosida nazariy tavsiyalar yaratilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida harbiy jurnalist kadrlarni tayyorlash hamda falsafa yo'nalishlarida darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlari yaratish, amaliyotchi jurnalistlar uchun uslubiy qo'llanma, tavsiyanomalar, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda muhim manba bo'lib, harbiy jurnalistikaga ixtisoslashgan tahririyatlar tashkiliy tuzilmasi, ular qoshida tashkil etilgan mahorat maktablarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish hamda kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Harbiy jurnalistika taraqqiyotiga kommunikativ hodisalarning ta'sir etish omillari tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

OAVning ijtimoiy institut sifatidagi ta'sir funksiyasi mahsuli bo'lgan jangovar harakatlar mediatizatsiyasi nizolashayotgan tomonlarning jamoatchilik ongini boshqarishga qaratilgan kommunikatsiyaviy modeli ekanligiga oid xulosa va takliflardan O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining ijtimoiy yo'naltiruvchi vazifalarida foydalanilgan (O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasining 2025 yil 14 maydagi 02-18/139-son). Natijada jurnalistlarning ixtisoslashuvida va kasbiy mahorati oshishida yordam bergan;

qurolli to'qnashuvlarda jurnalistning muayyan g'oya, mafkurani psixologik ta'sir vositasida singdirishi natijasida ijtimoiy fikrning sust reaksiyasiga olib keladigan passiv manipulyatsiya, yashirin, aldamchi, zo'ravonlik taktikasi bilan agressiv reaksiyaga sabab bo'ladigan aktiv manipulyatsiyaga bog'liq xulosa va takliflardan "Yangi media ta'lim markazi" nodavlat notijorat tashkilotining manipulyativ axborotlarga nisbatan immunitetni shakllantirishga qaratilgan faoliyatida foydalanilgan ("Yangi media ta'lim markazi" nodavlat notijorat tashkiloti, 2025 yil 20 maydagi 20-son). Natijada auditoriyada tajovuzkor kontentlarga nisbatan mustahkam immunitet shakllanishiga yordam bergan;

harbiy nizolarda axborot-targ'ibiy ta'sir ob'ektlari tasniflanishi natijasida OAV va davlat institutlari uchun muayyan strategiyani amalga oshirishning axborot-targ'ibiy ta'minot konsepsiyasi bilan bog'liq xulosa va takliflardan O'zbekiston milliy axborot agentligining ijtimoiy-siyosiy axborotlarni tarqatishga qaratilgan faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston milliy axborot agentligi, 2025 yil 29 maydagi 01-23/584-son). Natijada respublikaning ichki va tashqi siyosati to'g'risida ishonchli axborotlarni to'plash, tarqatish va ta'minlashni tashkil etishni yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

Chor Rossiyasi mustabid siyosati, qizil armiyaning milliy ozodlik harakatini bostirish bilan bog'liq jangovar harakatlari mediatizatsiyasida Turkistonga nisbatan "strategiya – diskreditatsiya, taktika – ayblov" formulasidan, harbiy nizoni

yoritayotgan jurnalist matnda qo‘llaydigan “nafrat tili” ning aspektlarini o‘rganishdan kelib chiqadigan taklif va tasviyalardan “Vatanparvar” Birlashgan tahririyatining ijtimoiy axborot tarqatish bilan bog‘liq faoliyatida foydalanilgan (Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentining 2025 yil 15 maydagi 40/127-son ma’lumotnomasi). Natijada bu nashrning milliy istiqloq mafkurasi targ‘ibotidagi roli, ijtimoiy institut sifatidagi maqomi ortishiga xizmat qilgan.

urush, qurolli to‘qnashuv, favqulodda, ziddiyatli vaziyatlarda media obrazlarni shakllantirishdagi muhim prinsiplarning mamlakatning ichki va tashqi imijiga bog‘liq ekanligiga oid taklif, tavsiyalardan “Muhofaza+” jurnali va “Vaziyat” gazetasi Birlashgan tahririyatining axborot-kommunikatsion faoliyatida foydalanilgan (Favqulodda vaziyatlar vazirligi axborot xizmatining 2025 yil 16 maydagi 12/4-1371-son ma’lumotnomasi). Natijada jurnalistlarning favqulodda, ekstremal sharoitlarda ishonchli axborot berish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta darslik, 4 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta antologiya, 1 ta monografiya, 2 ta ilmiy-ommabop nashr (hammualliflikda), 10 ta tezis, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 10 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, to‘rt bob, o‘n ikki fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 240 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ish rejaları bilan bog‘liqligi ko‘rsatilib, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalar ishonchliligi asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbekiston harbiy jurnalistikasi evolyusiyasiga kommunikativ hodisalarning ta’siri”** deb nomlangan bo‘lib, uchta fasldan iborat. Birinchi fasl “Jurnalistikada kommunikativ hodisalar tushunchasiga ilmiy qarashlar tadriji” deb nomlangan. “Kommunikatsiya” lotincha “communicatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “umumlashtiraman”, “bog‘layman” degan ma’nolarni anglatadi. Amerikalik faylasuf Jon Dyui “Jamiyat –

kommunikatsiya demakdir”, deydi. Shu ma’noda axborotga, ommaviy axborotga, ommaviy kommunikatsiyaga ehtiyojni insonning o‘zini, hayotini asrash, yashashni davom ettirish instinkti bilan bog‘liq degan xulosaga kelish mumkin. Tadqiqotda matbuot nazariyalari ta’siri natijasida monologik yoki dialogik kommunikativ makon shakllanishi bilan bog‘liq fikrni ilgari surildi.

Bugun axborotlashgan jamiyat tushunchasi tez-tez tilga olinadi. Ilmiy va ilmiy-ommabop ishlarda “Axborot makoni”, “media makon”, “kommunikativ makon”, “medialandshaft” atamalariga ko‘zimiz tushadi. Bu atamalarning barchasini “makon” so‘zi birlashtirib turadi. Filologiya fanlari doktori, professor X. Do‘stmuhamedov bunga izoh berarkan, “Hozirgi tushunchadagi demokratik jamiyatning birlamchi shartlaridan va belgilaridan biri unda aholi uchun yalpi muloqot, ya’ni kommunikatsiya muhiti yaratilganligi bilan anglashilmoqda” deb yozadi⁶.

Ommaviy kommunikatsiya xususida gap ketganda, uning rivojidadagi zamonaviy tendensiyalarga ham e’tibor berish kerak. Professor Marshall Maklyuen ta’riflagan zamonaviy axborot makonidagi “issiq” va “sovuq” OAV axborot urushini olib boruvchilarga imkoniyat yaratayotgani bilan bog‘liq manipulyativ jarayon ishda aks ettiriladi⁷. Shuningdek, sun’iy intellektning ommaviy kommunikatsiya jarayoniga integratsiyalashuvi harbiy jurnalistika rivojida qanday o‘rin tutishi, urush, harbiy nizo bilan bog‘liq ulkan hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, tezkor axborotlarga ega bo‘lish imkoniyati haqida ilmiy mushohada yuritiladi.

Jurnalistikada kommunikativ hodisalarni, zamonaviy tendensiyalari tahlil qilib, shunday ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

kommunikativ hodisalar jamoatchilik bilan muloqot qilishning muhim vositasi hisoblanib, jamiyatdagi voqealarni aks ettirish, jamoatchilikni xabardor qilish va fikrlashga undashda muhim rol o‘ynaydi;

kommunikativ hodisalarining mazmuni, formasi, ta’siri va konteksti o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning har biri voqelikning samaradorligiga ta’sir qiladi;

kommunikativ hodisalar haqqoniy va ob’ektiv axborot tarqatish, jamoatchilikni xabardor qilish, fikrlashga undash va muhokama qilishga chorlaydi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Harbiy jurnalistika taraqqiyotida kommunikativ makonning o‘rni” deb nomlanadi. Faslda harbiy jurnalistikaga bog‘liq kommunikativ makonning asosiy xususiyatlari bizningcha quyidagicha tasniflandi:

birinchidan, axborot tarqatish xususiyati. Harbiy jurnalistika jamoatchilikni harbiy xavfsizlik, mudofaa salohiyati, harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyati, ijtimoiy-maishiy hayoti va boshqa muhim masalalar bo‘yicha xabardor qilishda muhim rol o‘ynaydi;

⁶ Дўстмухаммад Х. Ахборот – мўъжиза, жозиба, фалсафа. – Т.: Янги аср авлоди, 2013. – Б.30.

⁷ Маклюэн М. Телевидение. Робкий гигант // Телевидение вчера, сегодня, завтра. - Вып. 7. - М., 1987.

ikkinchidan, jamoatchilik bilan muloqot xususiyati. Bunda harbiy xizmatchilar va jamoatchilik o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlash va kuchaytirish nazarda tutiladi;

uchinchidan, harbiy siyosatni shakllantirish xususiyati. Harbiy jurnalistika harbiy siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi;

to'rtinchidan, harbiy madaniyatni rivojlantirish xususiyati.

Harbiy jurnalistika rivojida harbiy kommunikatsiyaning tarixiy aspektlari muhim o'rin tutadi. Shu sababli tadqiqotda harbiy jurnalistikada kommunikatsiya rivojlanish tarixini davriy bosqichlarga ajratish taklif qilindi.

Qadimgi harbiy kommunikatsiya. Bunga harbiy tarixchilar, yozuvchilar urushlar haqida yozib qoldirishgan hikoyalarini misol sifatida keltirib o'tish mumkin. Masalan, Gomerning "Iliada" va "Odissey" dostonlarida Troya urushi haqida hikoya qilinadi⁸. Tarixiy asarlar, yozishmalar, bitiklardagi ma'lumotlarni o'rganar ekanmiz, qadimgi harbiy kommunikatsiyaning o'ziga xos jihatlari quyidagilarga aks etgan, degan xulosaga kelinadi:

og'zaki muloqot. Yozuv madaniyati hali rivojlanmagani tufayli harbiy xabarlar asosan og'zaki tarqatilgan;

xabarchilar vositasida muloqot. Harbiy axborotlarni yetkazish uchun xabarchilardan foydalanilgan;

ramzlar va bayroqlar vositasida muloqot. Harbiy xabarlarni yetkazishda turli xil ramzlar va bayroqlardan foydalanilgan;

sir saqlash xususiyati. Xabarchilar harbiy sirlarni ochib bermasliklari uchun qat'iy nazorat qilingan.

O'rta asrlardagi harbiy kommunikatsiya. Urushlar haqidagi xabarlar og'zaki tarqatilgan hamda bu davrda yozuv madaniyati rivojlangani tufayli ko'proq tarixiy manbalarda bitib qoldirilgan. Tarix fanlari doktori, professor H. Abduazizova Tunyuquq bitigida lashkarboshining faoliyati, tadbirkorligi va jasorati yurt mudofaasi va boshqaruviga, dushman ustidan g'alabaga doir tadbirlari hikoya qilinishini yozadi⁹. O'rta asrlardagi harbiy kommunikatsiyada yozuv rivojlanishi bilan bog'liq omil kommunikativ makonga sezilarli ta'sir o'tkazgan hamda davlat, jamiyat hayotida quyidagi o'zgarishlarga sabab bo'lgan:

harbiy yurishlar haqidagi xabarlarni yozib qolish an'anasi rivojlangan. Natijada harbiy yurishlarning borishi, janglarning tasvirlanishi, qahramonlik haqidagi hikoyalar va harbiy strategiyalar haqida axborotlar bizgacha yetib kelgan;

harbiy buyruqlar va xatlarning yozma shaklda yetkazilishi yo'lga qo'yilgan. Natijada harbiy yurishlarning rejalari, jang taktikasi, harbiy qo'shinlarni joylashtirish haqidagi ko'rsatmalar va boshqa ma'lumotlar saqlab qolingan;

harbiy yurishlardagi jasorat va g'alabalarni ta'riflashning kommunikativ samarador usul, an'analari shakllangan. Shoirlar va tarixchilar yozuv madaniyatidan foydalanishgani natijasida ulkan asarlar yaratilgan;

⁸ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/homer-iliada-rustam-ibragimov-Myrojaat> sanasi: 10.12. 2024.

⁹ Туркестон матбуоти тарихи (1870-1917). Тузувчи Н.А.Абдузизова. Тошкент. "Академия" 2000.-Б.8-9.

harbiy yurishlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va saqlash uchun yozma shakldan foydalanish tajribasi to'plangan. Bu ma'lumotlar harbiy strategiyani takomillashtirish, harbiy yurishlarni rejalashtirish va harbiy tajribalarni o'zaro o'rganishga xizmat qilgan.

Matbuot paydo bo'lgandan keyingi davrda harbiy kommunikatsiya. Matbuot paydo bo'lishi bilan harbiy kommunikatsiyaning asosiy xususiyatlari ham o'zgardi. Biz ularning eng muhimlarini quyidagicha ajratdik:

1) *tezkorlik xususiyati.* Matbuot yordamida harbiy xabarlar tezroq tarqatila boshlandi;

2) *qamrovning kengayishi.* Bosma nashrlar orqali harbiy axborotlarni keng auditoriyaga tarqatish imkoni yuzaga keldi;

3) *targ'ibot xususiyati.* Harbiy nizo, to'qnashuvlarni o'z manfaatlariga mos ravishda talqin etishda matbuot targ'ibot vositasiga aylandi;

4) *ma'lumot tarqatish xususiyati.* Harbiy maqsadlar uchun muhim hisoblangan ma'lumotlar, jumladan dushman tomon harakatlari haqida, qo'shin safarbarligi, harbiy xizmatga chaqiriq to'g'risida ma'lumotlarni tarqatish, e'lon qilishda matbuot muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Xitoyda vaqtli matbuotning tarixini Tan sulolasi davriga, ya'ni VIII-X asrlarga bog'lashadi. Ma'lum bo'lishicha, shu davrda "Dibao" ("Poytaxt xabarlar") nomli kundalik gazeta chiqarilgan¹⁰. Tabiiy ofatlar, urush bilan bog'liq favqulodda holatlarda "Dibao"ning maxsus sonlari chop etilgani nashrda harbiy mavzuga e'tiborni ko'rsatadi. 1665 yildan Angliyada chop etilgan birinchi rasmiy gazeta "The London Gazette" sahifalarida harbiy xabarlar ham berib borilgan¹¹. Rossiyada 1702 yil 17 dekabrda chop etilgan "Vedomosti" gazetasida armiya faoliyatini qayta tashkillashtirish borasidagi axborotlar berilgan¹². Turkistonda 1870 yilda chop etilgan ilk gazeta "Turkestanskiy vedomosti"¹³, 1906 yilning 5 fevralida nashr qilingan ilk harbiy nashr - "Turkestanskaya voennaya gazeta"¹⁴, 1906 yilda chiqa boshlagan "Soldatskiy listok" - "Pravda" varaqasi¹⁵, oktabr to'ntarishidan keyingi "Раненый Красноармеец", "Красный фронт", "Красноармеец", "Красная звезда"¹⁶ kabi harbiy nashrlar mintaqada harbiy kommunikatsiya rivojlanishida muhim o'rin egallagan.

Radio va televidenie paydo bo'lgandan keyingi davridagi harbiy kommunikatsiya. Bu davrda harbiy kommunikatsiyada o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bular:

¹⁰ Ян Чжи, Тянь Юехун. Современная журналистика Китая: вечерняя пресса, региональное радио. – Минск, 2011. – С.24

¹¹ Ф.Мўминов, А.Нурматов ва бошқ. Жаҳон журналистикаси тарихи. — Т.: Фан ва технология. -Б.166

¹² История русской журналистики XVIII—XIX веков. Под ред. проф. А. В.Западова. –М.: Высшая школа, 1966. – С. 17.

¹³ Б.Дўстқораев, Ўзбекистон журналистикаси тарихи, Ф.Фулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009 й. –Б. 18-19.

¹⁴ А.И.Добросмысловъ, "Ташкентъ въ прошломъ и настоящемъ", Ташкентъ. Эл. – паров. типо-лит. О.А.Порцева. Николаевская ул. соб. домъ, 1912. –Б. 285.

¹⁵ Н.Абдуазизова. Тошкент матбуоти. –Т.: Академия, 2010. -Б.100.

¹⁶ А.Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нодир нашрлар ва қўлланмалар бўлими, Г-16 (сб)

- *axborotni efirda tezkor va jonli uzatish*. Radio va televidenie harbiy nizolar xususidagi axborotlarni jonli efirda yoritish imkonini berdi;

- *axborotda tasvir va emotsionallik*. Televideniening urush, qurolli nizolarni tasvir orqali ko'rsatishi natijasida auditoriyada emotsionallik yanada ortdi;

- *ommaviylik*. Radio va televidenie orqali harbiy harakatlar haqidagi ma'lumotlarni keng ommaga yetkazish, jamoatchilikka ko'proq ta'sir o'tkazish imkoni yuzaga keldi;

- *medianing targ'ibot va tashviqot funksiyalari kengaydi*. Radio va televidenie orqali urush, harbiy nizolarni o'z maqsadlariga mos ravishda talqin qilish, targ'ibot va tashviqot olib borish imkoni paydo bo'ldi.

1922 yilning 18 oktabrida Buyuk Britaniyaning London shahrida asos solingan "BBC" davlat radio va televidenie kompaniyasi ikkinchi jahon urushidagi harbiy reportajlar, shuningdek, Koreya, Vetnam va Iroq urushlarini yoritishda ham media makonda muhim rol o'ynagan. 1980 yilda AQShda asos solingan "CNN" telekanali 1991 yildagi Fors ko'rfazi urushini jonli efirda yoritishi orqali yanada ommalashdi. Hatto, urush taqdiriga ta'sir qilgani uchun "CNN" ta'siri degan tushuncha jurnalistlar va olimlar o'rtasida keng muhokamalarga sabab bo'ldi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi davridagi harbiy kommunikatsiya. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanish dinamikasi media makonda harbiy kommunikatsiya uchun quyidagi imkoniyatlarni yuzaga chiqardi:

tezkorlik. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yordamida harbiy harakatlar haqidagi ma'lumotlar yanada tez va keng tarqaldi;

ommaviylik. Har kim internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali harbiy harakatlar haqida axborot olishi mumkin bo'ldi;

ochiqlik. Qurolli to'qnashuv, harbiy nizolar haqidagi ma'lumotlarni ko'proq odam bila boshladi;

ta'sirchanlik. Harbiy harakatlar, urushlar haqidagi axborotlarni ko'proq odamlar ko'rishi va o'qishi oqibatida kommunikativ ta'sir ko'lamini kengaytdi hamda unga tezkor munosabatlar paydo bo'ldi.

Bugungi kunda blogosfera an'anaviy OAV vakillari kontentiga kirmagan, uni to'ldiradigan, voqelikni batafsil hikoya qiladigan, senzura va tahririyatning shartlari, talablaridan xoli bo'lgan ijodini auditoriya bilan baham ko'rishga imkon yaratmoqda. Natijada urushni yoritayotgan jurnalistlar bloglar orqali kommunikatsiyaga kirishib, birinchidan auditoriyaga o'zi istagan shakl va mazmunda axborot beryapti. Ikkinchidan, kasbiy sifat va imkoniyatlarini oshirmoqda. Professional sifat va kontent kommunikativligi oshishiga blogosfera quyidagicha ta'sir ko'rsatmoqda:

aniq, maqsadli auditoriya bilan kommunikatsiya o'rnatadi hamda harbiy mavzuda yozilgan material interaktivligini oshiradi;

tahririyat cheklovlari va senzura nisbatan reaksiya paydo qiladi;

jurnalistik mahoratini kengroq namoyon etishga rag'batlantiradi;

harbiy nizo, qurolli to'qnashuvlarga ixtisoslashgan ijod laboratoriyasi kengayadi, faolligi ortadi;

kommunikativ faol maydon hosil bo'lishi natijasida axborotlar to'plash samaradorligi oshadi.

Dissertatsiya birinchi bobining “XIX asr oxiri - XX asr boshlarida milliy va harbiy nashrlar tarixi va amaliyotidagi kommunikativ hodisalarning g‘oyaviy jihatlarini” deb nomlangan uchinchi faslida jadid matbuotida Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Hoji Muin kabi jadidchilik harakatining taniqli namoyondalarning milliy qo‘shin haqidagi materiallari, Vatan va hurriyat uchun armiya zarur ekanligi bilan bog‘liq fikrlari tahlilga tortildi. Tadqiqotda Turkiston muxtoriyati o‘rnatilishida milliy nashrlarning, xususan jadid matbuotining qo‘shin bilan bog‘liq maqolalarda g‘oyaviy ta’sirchanlik masalasi quyidagi jihatlarni qamrab olishi aniqlandi:

milliy ongini uyg‘otish va o‘zaro birdamlik g‘oyalari orqali millatni Turkiston muhofazasiga da’vat etish;

Turkiston xalqini o‘z taqdirini qo‘liga olishga, mustaqillik uchun kurashishga chorlash;

Turkiston muxtoriyati himoyasi uchun kurashishga ruhlantirish;

harbiy xizmatni vatanni himoya qilishda milliy burch sifatida talqin qilish orqali ajdodlardan qolgan jangovar ruhni uyg‘otish;

ijtimoiy fikrda harbiy xizmatga chor Rossiyasi davridan qolgan salbiy munosabatni o‘zgartirish;

ozodligimiz dushmanlariga qarshi axboriy-targ‘ibotni kuchaytirish;

Turkistonning jahon maydonida tan olinishida armiyaning roli katta ekanligini aholiga tushuntirish;

vatan va hurriyatni qutqarish Turkistonning askariy quvvatiga bog‘liq ekanligini tushuntirish;

Turkistonda yashovchi barcha millatlarning tinchlik va osoyishtalik bilan bog‘liq huquqini saqlash;

armiya har bir millatning hayot-mamot masalasi ekanligini tushuntirish;

imperialistlarning ehtimoliy tahdidlaridan Turkistonni himoya qilish.

Turkiston xalqlarining milliy ozodlik uchun kurashi mohiyati, maqsadi, tarixiy ahamiyati 1918-1924 yillarda Turkfrontning harbiy nashrlari orqali noto‘g‘ri talqin etildi. Mustabid tuzum mafkurachilari matbuot vositasida tarixiy haqiqatni soxtalashtirishdi. Tarix fanlari nomzodi P.Agapovning dissertatsiyasi avtoreferatida qizil armiyaning Turkistondagi harbiy nashrlari auditoriyaga quyidagi asosiy g‘oyalarni singdirgani keltirib o‘tilgan:

Turkistonda qizil armiya harbiy qismlarini tashkil etish va mustahkamlash;

turkistonlik jangchilarning siyosiy tarbiyasini mustahkamlash;

turkistonlik jangchilarni aksilingilobiy qurolli kuchlarni yanchib tashlashga safarbar etish.

Mustabid tuzum o‘rnatilishi, mustahkamlanishi yo‘lida chop etilgan harbiy nashrlarda auditoriyaga g‘oyaviy ta’sirdan shunday maqsadlar ko‘zlangan:

qizil qo‘shin ichida yaqinda tuzilgan va tuzilayotgan milliy bo‘linmalar askarlari o‘rtasida keng targ‘ibot, tashviqot ishlarini olib borish;

askarlarni hukumat ishlari bilan tanishtirish;

milliy bo‘linmalardagi askarlarni Turkiston hayoti hamda baynalmilal ahvol bilan tanishtirish;

mahalliy aholi, xususan mehnatkashlar o'rtasida qizil qo'shin uchun milliy bo'limlar tuzish fikrini tarqatib, ijtimoiy fikrga ta'sir etish;

mahalliy aholi bilan qizil qo'shin o'rtasidagi munosabatni yaxshilash.

sho'rolar olib borayotgan siyosatning ezilgan mehnatkashlarni ozod qilishga qaratilganiga ishonchni mustahkamlash;

aksilinqilobchilarga qarshi beayov kurashga to'liq safarbarlik ruhini oshirish;

vayron bo'lgan xalq xo'jaligini, qishloq xo'jaligini tiklashga qaratilgan safarbarlik hissini tarbiyalash.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Harbiy nizolarda kommunikativ hodisalarning muhim omillari”** deb nomlanib, birinchi faslda harbiy ziddiyatning ilmiy-nazariy asoslari hamda yuzaga kelish mexanizmlari o'rganilgan. Harbiy ziddiyat dissertatsiyada kommunikativ omillarning markazida turadi. Shu sababli biz mazkur bobda uning nazariy asoslariga ham to'xtalib o'tishni lozim topdik. Muammoning ilmiy-nazariy asoslari Jan Jak Russo, Imminuil Kant, Tomas Gobbslarning fikrlari misolida tahlilga tortilganda, ziddiyatning konstruktiv jihati namoyon bo'ldi. Natijada harbiy ziddiyat davlatlarning o'zini saqlab qolish uchun harakati ham bo'lishi mumkin, degan xulosa kelib chiqdi.

Tadqiqotda Rossiya, AQSh, Qozog'iston, O'zbekiston mudofaa doktrinalari, BMT nizomi, 1949 yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyalari tahlili asosida harbiy nizolarning huquqiy negizi o'rganildi. Natijada harbiy mojaro davlatlar o'rtasidagi yoki davlatning ichki qarama-qarshiliklarini harbiy kuch qo'llagan holda hal etish shakli degan umumiy xulosa kelib chiqdi.

Bugun zamonaviy urushlarda kuchli sub'ektlarning kuchsiz sub'ektlarga nisbatan harbiy operatsiya o'tkazish tendensiyasi shakllanib bormoqda. OAVda turli harbiy operatsiyalar xususida ko'plab axborotlarga ko'zimiz tushadi. AQSh o'z bosqinini tinchlikparvarlik harbiy operatsiyasi, Rossiya esa maxsus harbiy operatsiya sifatida mediada keng talqin etdi. O'zbekistonda Sariosiyo va Uzun tumanlarida bir guruh xalqaro terrorchilarga qarshi kurash OAVda qanday talqin etilganini bilish maqsadida “Vatanparvar” gazetasining 2000 yil avgust oyidagi ayrim sonlarini tahlilga tortdik. Nashrda harbiy nizo “terrorchilarni tugatish borasidagi ishlar”¹⁷, “terrorchilarning qolgan-qutganlarini bartaraf etish borasidagi operatsiya”, “tozalash operatsiyasi”¹⁸ tarzida yoziladi. OAVda “urush” so'zi emas, “operatsiya” so'zi ko'p qo'llanilishiga sabab mazkur ziddiyatning qurolli nizo, ya'ni miqyosi cheklangan qurolli to'qnashuv ekanligi bilan xarakterlanadi.

Harbiy OAVning media makondagi o'rni harbiy nizo, urush va qurolli to'qnashuvlar sharoitida qanchalar muhim ekanligini harbiy jurnalistika shakllanishining o'ziga xosliklari aks etgan tarixiy davrlar ko'rsatib turibdi:

Birinchi jahon urushida ko'lami kengaygan targ'ibot apparati shakllandi hamda qat'iy senzura yuzaga keldi;

¹⁷ «Ватанпарвар» газетаси, 2000 й, 10 август. –Б.1.

¹⁸ «Ватанпарвар» газетаси, 2000 й, 15 август. –Б.1.

Ikkinchi jahon urushida targ'ibotni moliyalashtirish va mediani boshqarish mexanizmlari kengaydi. OAV ustidan qat'iy senzura va nazoratdan harbiy ma'lumotlarni boshqarishga o'tildi;

zamonaviy harbiy harakatlar teatrida OAVni boshqarish tamoyili o'zgardi. Oqibatda axborot va OAVni boshqarish urushni olib borishning ajralmas qismiga aylandi.

Filologiya fanlari doktori, professor F.Mo'minov "Jurnalistika ommaga ko'rsatadigan ta'siri samaradorligini oshiradigan uslublarni izlashda davom etmoqda"¹⁹ deydi. Olim aytgan fikr isbotini harbiy nizolarni yoritishda paydo bo'layotgan kommunikativ samarador uslublar, texnologiyalarda ko'rish mumkin. Biroq bugun harbiy nizolar sharoitida jurnalistikaning kommunikativ samarador uslublarni izlashi emas, "jilovining" urush olib borish jarayoniga to'g'irlanishi muhim bo'lib qolayotgani achinarli holdir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda harbiy nizo, ziddiyatlar fonida medianing manipulyativ sifati namoyon bo'lib, nazorat funksiyasi boshqa o'zanga burib yuborilmoqda. Natijada qaysi davr bo'lishidan qat'i nazar matbuotning, xususan harbiy OAVning axboriy va kommunikatsiyaviy manipulyatsiya borasidagi imkoniyatlaridan samarali foydalana bilgan tarafning qo'li baland keladi, degan tushuncha tobora shakllanmoqda.

Harbiy nizolarda OAVni boshqarishning yangi-yangi mexanizmlari paydo bo'lishi ijtimoiy institut sifatidagi vazifalariga soya solib, jamiyatning ko'p tomonlama kommunikatsiyani, media yordamida boshqaruvni amalga oshirish immuniteti pasayib borishi mumkin.

Dissertatsiya ikkinchi bobi ikkinchi fasli "*Harbiy to'qnashuvlarning kommunikativ fenomen sifatidagi xususiyatlari*" deb nomlangan. Olimlarning fikricha, harbiy to'qnashuvlarda kommunikatsiya fenomeni OAVga qo'yiladigan quyidagi ayrim vazifa va maqsadlarga bevosita bog'liq bo'ladi:

birinchidan, manipulyatsiya maqsadlarida foydalanilish ko'zda tutilgan talqin;

ikkinchidan, dunyo jamoatchiligini ishontirish maqsadida sub'ekt harakatlarini oqlash;

*uchinchidan, "urush" tushunchasini kommunikativ fenomen sifatida qo'llash; to'rtinchidan, "urush" mavzusini auditoriyaga sotish orqali qo'shimcha moliyaviy foyda olish imkoniyati*²⁰.

Urush va nizolarda "axborot ta'minoti" tushunchasi qo'llaniladi. Bu kommunikatsiya fenomenida muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Siyosatshunoslik fanlari doktori, professor Rustam Jumaev konfliktlarning bartaraf etilishida "axborot ta'minoti" emas, "axborotning targ'ibiy ta'minoti" haqida so'z yuritilishi kerak, degan fikrni bildiradi²¹. Bizningcha, bu muammoni hal etishda har bir qurolli nizo, harbiy to'qnashuvga nisbatan alohida strategiya ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Strategiyani amalga oshirish uchun axborot-targ'ibiy

¹⁹ Мўминов. Ф. Журналистика социологияси ва психологияси. -Т.: Ўзбекистон, 2019. -Б.282.

²⁰ Никонов.Б. Война как коммуникативный феномен. https://elibrary.ru/query_results.asp Дата обращения: 17.01.2025.

²¹ Джумаев Р. Конфликтология. Монография. Тошкент.2018. -Б. 132.

ta'minotning konsepsiyasi tadqiqotda taklif etilib, jurnalist va davlat roli ko'rsatib berildi.

Tadqiqotda harbiy to'qnashuvlarning kommunikativ fenomen sifatidagi xususiyatlari quyidagi tasniflandi:

- 1) ijtimoiy fikrga ta'sir xususiyati;
- 2) axborot ta'minoti bilan bog'liq xususiyati;
- 3) OAVning diskursiv xususiyati;
- 4) OAVning moddiy manfaatdorlik xususiyati;
- 5) tahdid uyg'otish xususiyati.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob uchinchi fasli "*Jangovar harakatlar mediatizatsiyasida kommunikativ strategiya muammolari*" deb nomlanib, qurolli to'qnashuv, nizolarda so'z va iboralarning medialashuvi yordamida hosil qilinadigan mediatizatsiya strategiyasi muammosiga nazar tashlandi. Tadqiqotda "Jangovar harakatlar mediatizatsiyasi, bu – OAVning ijtimoiy institut sifatidagi ta'sir funksiyasi mahsuli bo'lib, nizolashayotgan tomonlarning jamoatchilik ongini boshqarishga qaratilgan kommunikatsiyaviy modeli" degan ta'rif ishlab chiqildi.

Qurolli to'qnashuvlarda, harbiy nizolarda so'z, ibora medialashuvi muammosini O'zbekiston misolida o'rganganimizda adovat, nafratni keltirib chiqaradigan negativ strategiya shakllantirilgani aniqlandi. Ijtimoiy ongni falajlash uchun mustabidlar OAVni qo'llagan holda qurolli nizolarda "bosmachi" so'zi bilan bog'liq negativ mediatizatsiya strategiyasini hosil qilishgani materiallar tahlili yordamida isbotlandi.

Tadqiqotda qurolli to'qnashuv, nizolarda so'z va iboralarning medialashuvi yordamida o'zaro nizolashayotgan tomonlarning mediatizatsiya strategiyasi quyidagicha ko'rinish oldi:

- *negativ strategiya;*
- *negativ-kamsituvchi strategiya;*
- *negativ-kamsituvchi-tajovuzkor strategiya;*
- *pozitiv strategiya.*

Xulosa qilib aytganda, qurolli nizolarning mediatizatsiyasidagi strategiyada quyidagi muammolar namoyon bo'lmoqda:

qurolli nizolar mediatizatsiyasi negativ strategiyasida muayyan so'z, iboralar yordamida siyosiy diskursni paydo qilish;

pozitiv strategiya orqali manipulyatsiyani keltirib chiqarish;

OAVning ijtimoiy institut rolini istisno qilish;

mediatizatsiya strategiyasini adovat tiliga yo'naltirish;

OAVning ta'sir funksiyasini axborot tizginini tutgan kuch manfaatiga yo'naltirish;

OAVni axborot urushiga keng jalb qilish;

g'arazli "ayblov taktikasi" da OAVni qo'llash.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "*Mudofaa siyosatida axborotning ijtimoiy ahamiyati*" deb nomlanib, birinchi faslida harbiy siyosatning yoritilishida jurnalistning fuqarolik mas'uliyati tadqiq etildi. Jurnalistning fuqarolik mas'uliyati OAVning ijtimoiy institut sifatidagi vazifasidan kelib chiqadi. Filologiya fanlari doktori, professor M.Xudoyqulovning jamiyat boshqaruvida hamda insonlarni

jamiyat bilan, jamiyatni esa insonlar bilan bog‘lab turishda jurnalist, xususan ijtimoiy axborot asosiy xizmatni bajaradi, degan fikri ham bu kasb egalarining fuqarolik mas’uliyatiga borib tutashadi.

Dissertatsiyada harbiy jurnalist fuqarolik mas’uliyatining asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo‘lishi taklifi berildi:

- 1) *harbiy siyosat, urush, nizolar bilan bog‘liq voqea-hodisani xolisona va to‘g‘ri yoritish;*
- 2) *manbalarni tekshirish va isbotlash;*
- 3) *targ‘ibot va tashviqotdan saqlanish;*
- 4) *tinchlikni saqlashga hissa qo‘shish;*
- 5) *siyosiy ta’sir va bosimlardan xoli bo‘lish;*
- 6) *harbiy siyosat haqidagi axborotida tanqidiy-tahliliy fikrlarni berish.*

Turkistonda milliy ozodlik uchun kurashga qarshi olib borilgan harbiy siyosatni yoritishda jurnalist fuqarolik mas’uliyati o‘rnini ko‘proq partiyaviy majburiyat egallagani OAVda berilgan materiallar misolida isbotlandi. Faslda ko‘tarilgan muammo yuzasidan quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

jurnalistlar harbiy siyosat haqidagi xabarlarni tayyorlash va tarqatishda jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini anglab yetishlari;
mamlakat va uning xavfsizligiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari;
xalqaro huquq normalari va tinchlikni saqlash prinsiplariga amal qilishlari;
kasbiy faoliyatida axloqiy me‘yorlar va prinsiplarga amal qilishlari kerak.

Bobning ikkinchi fasli “*Ijtimoiy institutlar va OAV o‘rtasida harbiy axborot almashinuvi jarayonlarining tanqidiy tahlili*” deb nomlanib, muammo harbiy jurnalistika taraqqiyotida muhim kommunikativ hodisa bo‘lgan nizo, ziddiyat, qurolli to‘qnashuvlar misolida ko‘rib chiqildi. Filologiya fanlari doktori, professor F.Mo‘minov ommaviy axborot tushunchasiga izoh berarkan, uning asosiy formalaridan biri sifatida ijtimoiy institutlar va jamiyatni qamrab olishiga e’tiborni qaratadi²².

Faslda “Xalq so‘zi” gazetasidagi harbiy nizo bilan bog‘liq materiallarni o‘rganib chiqib, ijtimoiy axborot almashinuvini ikki guruhga tasnifladik:

- 1) davlat institutlarining pozitsiyasi aks etgan ijtimoiy axborot;
- 2) gazeta muxbirlari, olim, yozuvchi, diniy mutaxassislar, mahalla faollari kabi ijtimoiy institut vakillarining munosabati bildirilgan axborot.

“Vatanparvar” bilan “Xalq so‘zi” gazetasidagi axborotlar qiyoslanganda harbiy jurnalist materiallarida ijtimoiy axborot almashinuvi quyidagi jihatlari bilan ajralib turishi isbotlandi:

- 1) *harbiy xizmatchilar nomidan ziddiyatga munosabat berilishi;*
- 2) *voqeaning aholiga bo‘lgan salbiy ta’sirini kamaytirishda harbiy kuch, salohiyatni ko‘rsatish;*
- 3) *ziddiyat hududidagi ijtimoiy guruhlar fikri orqali konfliktni lokallashtirish, tinchlikni o‘rnatishga hissa qo‘shish.*

²² Муминов Ф. Валюта власти. Монография. Т. 2023. –С. 448.

Urush, qurolli nizolar tobora avj olib borayotgan davrda ularni o'rganadigan, tadqiq etadigan xalqaro ijtimoiy institutlarga ham zarurat paydo bo'layotgani, mediagigantlar qurolli to'qnashuv bilan bog'liq axborotlarida ularga murojaat etayotgani "Urushni o'rganish instituti" (ISW), "Stokgolm xalqaro tinchlik tadqiqoti instituti" (SIPRI), "Amerika tinchlik tadqiqot instituti" (USIP) misolida ochib beriladi. Muammo yuzasidan ijtimoiy institutlar o'rni o'rganilib, ularning axboroti OAVda yoritilishi orqali:

auditoriyaga urushning sabablari, oqibatlari va yechimlari haqida chuqurroq tushuncha beriladi;

jamoatchilikning urushga bo'lgan munosabati shakllantiriladi;

xalqaro maydonda siyosatchilarning urushga nisbatan munosabati shakllantiriladi, degan xulosaga kelindi.

Sariosiyo va Uzun tumanlarida kechgan harbiy nizo bilan bog'liq axborot almashinuvi tahlil qilinganda "Xalq so'zi" ning "Vatanparvar" dan farqli jihatlari quyidagilarda aks etdi:

ijtimoiy institutlar vakillarining materiallarida harbiy nizo bo'yicha davlat pozitsiyasi yaqqol aks etadi;

ijtimoiy axborotda kombatantlarga emas, ko'proq nonkombatantlarga urg'u beriladi;

axborot-targ'ibiy ta'sir ob'ektlari tinchlikni saqlash borasidagi maqsadga yo'naltiriladi;

kontent ta'sirchanligi orqali xalqaro terrorchilarga nisbatan ijtimoiy nafrat shakllantiriladi;

gumanitar xarakterdagi axborot ustuvorlik qiladi.

Uchinchi bobning uchinchi fasli "Mudofaa siyosati targ'ibotida media obrazlarni shakllantirish tamoyillarining transformatsiyasi" deb nomlanadi. Media obrazlar kommunikativ hodisa sifatida axborotni yetkazish, ma'nolarni shakllantirish, auditoriya bilan o'zaro ta'sir qilish va kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlatning mudofaa siyosati targ'ibotida media obrazlarni shakllantirish orqali jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazilar ekan, islohotlar samaradorligi ta'minlanadi. "Vatanparvar" dagi media obrazlar vatanparvarlikka yo'naltirilgan media obrazlar deb nomlandi va quyidagicha tasniflandi:

harbiy xizmatchilarning qaynoq nuqtadagi jasorati, shijoati, qat'iyati, fidoyiligi aks etgan media obrazlar guruhi;

qahramonlik, vatanparvarlik targ'iboti orqali yaratilgan media obrazlar guruhi;

qurolli to'qnashuv voqeligi, hududi, geografiyasi, harbiy xizmatchilarning emotsiyasi va boshqa muhim jihatlar vositasida Vatanni ifodalashga qaratilgan mediaobrazlar guruhi.

Tahlillar natijasida media obrazlarni shakllantirishda quyidagi muhim prinsiplar aniqlandi:

dunyoda va O'zbekistonda tinchlik hukmron bo'lishiga qaratilgan umuminsoniylik prinsipi;

muqaddas tuproqni, uning barcha moddiy va ma'naviy boyliklarini asrashga qaratilgan xalqchilik prinsipi;

harbiy xizmatchilarning jangovar hayoti, jasorati, shijoati, qat'iyati, fidoyiligini aniq va haqqoniy aks ettirish prinsipi;

sarhadlar himoyasiga jangovar shaylik, yurtga muhabbat, milliy g'urur tuyg'ularini kuchaytirishga qaratilgan vatanparvarlik prinsipi;

harbiy xizmatchilarning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlari, jamiyatga bo'lgan mas'uliyati, dushmanga nafratini ifodalovchi askariy qahramonlik prinsipi.

Dissertatsiyaning “Ziddiyatli vaziyatlardan media mahsulot tayyorlashda jurnalist mahorati va faoliyatining o'ziga xosligi” deb nomlangan to'rtinchi bobi birinchi faslida ziddiyatli vaziyatlardan reportaj tayyorlash va axborot manipulyatsiyasi muammosi tadqiq etildi.

Tadqiqot ob'ektidagi urush, harbiy nizo bilan bog'liq kontentlar tezkor, ta'sirchan, tahlilga boy shaklda ko'proq reportaj janrida berilgan. Reportaj tayyorlash uchun jurnalist jamoatchilikni xabardor qilish, ziddiyat oqibatlarini tushuntirish, siyosiy qarorlarga ta'sir o'tkazish uchun xavfli hududlarda shaxsan ishtirok etadi. Bir guruh olimlarning fikricha, harbiy reportaj axborot va tahliliy janr sifatida ommaviy kommunikatsiyalarning talqin qilish yoki mafkuraviy funksiyasini amalga oshiradi²³. Faslda 2000 yilda O'zbekistonning janubiy sarhadi hisoblangan Surxondaryoda bo'lib o'tgan qurolli to'qnashuv jarayonidan tayyorlangan reportajlar ko'rib chiqildi. Harbiy nizolar jarayonidan tayyorlangan reportajlarda qo'llanilgan manipulyatsiyani ikki tipga: passiv va aktiv manipulyatsiyaga bo'lish taklif qilindi.

Reportajlardagi passiv manipulyatsiyada:

auditoriya e'tiborini birinchi darajali voqelikdan chalg'itish;

ijtimoiy guruh taassurotini barchaga umumiy qabul qildirish;

taniqli shaxslar fikri orqali jamoatchilikka ta'sir o'tkazish;

maqsadli auditoriyaga xos kontentlar yordamida fikrni o'zgartirish kabi mexanizmlar qo'llaniladi.

Reportajlardagi aktiv manipulyatsiyada:

haqoratli metafora, nom, laqablarni qo'llab ijtimoiy fikrda adovatni uyg'otish;

muqobil qarashlarni rad etish maqsadida voqelik haqida bir tomonlama axborot berish;

haqiqat dozasini kamaytirish orqali ong ostiga yolg'onni joylashtirish kabi mexanizmlar qo'llanilishi mumkin.

To'rtinchi bobning ikkinchi fasli “Harbiy nizo matnlarida “nafrat tili” qo'llanilishining muhim aspektlari” deb nomlanadi. Biz harbiy nizolar bilan bog'liq matnlardagi “nafrat tili”ga, “Oppozitsion leksik konstruksiyaga ega, dushmanni, bosqinchini kamsitish, tahqirlashga qaratilgan ijtimoiy stereotip yaratishga mo'ljallangan matn” degan ta'rifni taklif qildik. OAVda chop etilgan

²³ Клеменова Е.Н., Кудряшов И.А. Текст репортажа в аспекте критического дискурс-анализа // Вестн. Новосибирского гос. ун-та. Серия: История, филология. 2015. Т. 14. № 6. -С. 140–145.

materiallar tahlili yordamida harbiy nizoni yoritayotgan jurnalist matnda qo‘llaydigan “nafrat tili” da ijtimoiy aspektlar quyidagicha tasniflandi:

zoomorf metaforaga asoslangan g‘ayriinsoniy aspekt;

qarg‘ishga asoslangan g‘ayriaxloqiy aspekt;

qo‘rquv va g‘azab hosil qiladigan aspekt;

dushmanga umumiy ijtimoiy ayblovlar taqalgan aspekt.

“Vatanparvar” va “Xalq so‘zi” gazetalaridagi nafrat tili matnlari A. Verxovskiy taklif etgan tasnif asosida o‘rganildi, jadvalga solindi:

3-jadval

Nafrat tili tasnifi	Ijtimoiy fikrga ta’siri
Keskin nafrat tiliga qaratilgan matn	<p>Qurolli nizoga, agressivlikka ochiq da’vat etish (<i>“payini qirqish operatsiyasi”, “har bir o‘q misoli xalq nafrati”, “qonxo‘r gazandalarni tezroq yo‘q qilish”</i>);</p> <p>- kamsitish, haqorat qilish orqali nizoni kuchaytirish (<i>“niyati jinoyatchilik, narkobiznes va qo‘poruvchilik bo‘lgan bu xudobezorlar”, “vatani notayin nobakorlar”, “badxo‘r gazandalar”</i>)</p>
O‘rta nafrat tiliga qaratilgan matn	<p>Noaniqlik, shubha va gumon orqali ijtimoiy nafratni hosil qilish (<i>“Jangarilar xorijdagi terrorchilar tayyorlanadigan maxsus lagerlarda yaxshi tayyorgarlikdan o‘tgan”, “Tojikistonning tog‘li hududlari orqali mamlakatimizga suqilib kirmoqchi bo‘lgan”,</i>)</p> <p>Davlat kuch tuzilmalarini ayblash orqali umumiy nafratni paydo qilish (<i>“Barcha aybni qardosh Tojikiston Respublikasi hukumati zimmasiga yuklash niyatidan yiroqmiz”</i>)</p>
Nisbatan yumshoq nafrat tiliga qaratilgan matn	<p>Jinoyatini tasdiqlagan holda nafratni hosil qilish (<i>“Tog‘dagi yerlarimizdan narkotik moddalar, kurol-yarog‘ tashish maqsadida foydalanmoqchi bo‘lgan xalqaro terrorchilarning manfur niyati Yurtboshimiz tomonidan fosh etildi”, “Xalqaro terrorchilarning asosiy maqsadlaridan biri yurtimiz orqali yurtimiz orqali narkotik moddalar olib o‘tadigan yo‘lak ochishdan iborat”</i>).</p>

	<p>Axloqiy nuqsonlarini bo‘rttirgan holda nafrat tilini hosil qilish (“...qon to‘kish kasbi bo‘lib qolgan ekstremistlarga”, “ular o‘zlari-ning barcha kirdikorlarini har xil siyosiy shioru talablar bilan niqoblashga urinishi mumkin”)</p>
--	---

To‘rtinchi bobning *“Ekstremal holatlarda axborot olishda jurnalistning huquq va majburiyatlari”* nomli faslida avvalo ekstremal vaziyatda harbiy jurnalist qanday huquqlarga ega bo‘lishi tasniflab chiqildi:

- 1) *harbiy jurnalistning erkin axborot olish huquqi;*
- 2) *harbiy jurnalistning xavfsizlik huquqi.*
- 3) *harbiy jurnalistning erkin fikrlash va axborot tarqatish huquqi.*

Ekstremal holatda harbiy jurnalist majburiyatlari quyidagicha tasniflandi:

- 1) *voqelik haqida haqiqatni aniqlash va tarqatish;*
- 2) *davlat va jamiyat xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qilish;*
- 3) *axborotga bo‘lgan ishonchni ta‘minlash;*
- 4) *jamiyat manfaatlarini himoyachisi bo‘lish.*

Bu xulosalardan kelib chiqib, ekstremal holatlardan axborot olish va tarqatishning umumlashgan me‘yorlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lar edi, deb hisoblaymiz. Mazkur me‘yorda harbiy nizo hududida jurnalistga quyidagi majburiyatlar belgilanishi kerak:

axborot inson huquqlarini ta‘minlash jarayonining zaruriy tarkibiy qismi ekanligini anglash;

ob‘ektiv bo‘lmagan axborot fojiali natijalarga olib kelishi mumkinligini his qilish;

to‘la va haqqoniy axborotga ega bo‘lish huquqini anglash;

konflikt jarayonini ijtimoiy fikrga noto‘g‘ri tushuntirishning oqibatlarini hisobga olish;

kasb mahorati yo‘qligi sababli media makonda salbiy oqibatlar yuzaga kelishini hisobga olish;

noto‘g‘ri, feyk axborot tarqatib, real faktlar va aslida bo‘lmagan hodisalarning qarama-qarshiligini keltirib chiqarmaslik.

XULOSA

O‘zbekiston harbiy jurnalistikasi tadrijiy rivojiga kommunikativ hodisalarning ta‘siri, xususan qurolli to‘qnashuv sharoitida uning o‘rni mamlakat mudofaa sohasida olib borilayotgan izchil, shaffof siyosatga, kommunikativ makonda fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta‘minlashga, axborotning ijtimoiy ahamiyatiga bevosita bog‘liqdir. “Harbiy jurnalistika taraqqiyotiga kommunikativ hodisalarning ta‘sir etish omillari” mavzusida filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Davlatning milliy manfaatlarini, xavfsizligini ta‘minlashda axborot siyosatining dolzarbligidan kelib chiqib, harbiy nizolarni hal etishda ijtimoiy fikrga

axborot va targ'ibotning ta'sir kuchini belgilab beradigan, OAV ijtimoiy mavqei va mas'uliyatini baholaydigan media indikatorlarni ishlab chiqish lozim. Bunda nizo bilan bog'liq mediakontentdagi ijtimoiy keskinlik, ziddiyat dinamikasi, kalit so'zlar, semantik yadro xususiyati, mediatsiya va boshqa muhim ijtimoiy parametrlar hisobga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Turkiston muxtoriyati, Turkistondagi milliy ozodlik harakati bilan bog'liq tariximizda milliy davlatchilikni armiya bilan saqlab qolish g'oyasi axborot siyosati to'g'ri yo'lga qo'yilmagani sababli ijtimoiy fikrga yetarlicha ta'sir ko'rsatmadi. Globallashuv jarayonini, harbiy kommunikatsiya makonida yangi ishtirokchilar paydo bo'layotganini, yangi media texnologiyalarni, zamonaviy tahdidlarni hisobga olgan holda O'zbekiston uchun mudofaa bo'yicha axborot strategiyasini ishlab chiqish kerak.

3. Harbiy jurnalistikada kommunikatsiya rivojlanish tarixini davriy bosqichlarga bo'lgan holda fundamental tadqiqotlar olib borib, bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun "Harbiy jurnalistika tarixi" darsligini yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Jadid publitsistikasidagi milliy qo'shin bilan bog'liq materiallarni topish, tabdil etish va bibliografik ko'rsatkichlarini shakllantirish. Markaziy, front va milliy(baynalmilal) gazetalar tasnifi doirasida Turkfront harbiy nashrlarining katalogini ishlab chiqish kerak.

5. Urush va qurolli to'qnashuvlarda axborot strategiyasini to'g'ri shakllantirish uchun axborot-targ'ibiy ta'minot konsepsiyasini ishlab chiqish va unda medianing hamda davlatning vazifalarini aniq belgilash lozim.

6. Qurolli nizolar mediatizatsiyasi pozitiv-negativ strategiyasida muayyan so'z, iboralar yordamida siyosiy diskursni paydo qilish muammosi bo'yicha o'quv qo'llanma tayyorlash kerak.

7. Harbiy siyosat haqidagi xabarlarini tayyorlash va tarqatishda jamoatchilik fikrini shakllantirish, mamlakat xavfsizligiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, xalqaro huquq normalari va tinchlikni saqlash prinsiplariga amal qilish kabi mezonlardan kelib chiqib, harbiy jurnalistning urush hamda tinchlik sharoitida fuqarolik mas'uliyati bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqish lozim.

8. Urush, qurolli to'qnashuvlarda OAV militar leksikasida qo'llaniladigan giperonimlarning mediaobraz konstruksiyasidagi ahamiyatini chuqur o'rganib, tadqiq etib, uslubiy qo'llanma yaratish kerak.

9. Qurolli to'qnashuvlardan tayyorlangan reportajlarda ma'lum g'oya, mafkurani singdirishga qaratilgan passiv manipulyatsiya, yashirin, aldanchi, zo'ravonlik taktikasi bilan jamoatchilik qarashlarini, xulqini o'zgartirishga qaratilgan aktiv manipulyatsiyani aniqlashning metodologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

10. Harbiy nizoni OAVda yoritishda qo'llaniladigan "nafrat tili" ning ijtimoiy aspektlarini jurnalist etikasi, psixologiyasi fanlari kesimida chuqur o'rganib, qo'llanma chop etish.

11. Ekstremal holatlarda axborotning davlat va jamiyat xavfsizligiga ta'sirini baholash mexanizmlari asosida jurnalistning O'zbekiston qonunchiligida mavjud

huquq va majburiyatlariga oid me'yorlarni tahlil qilish va muayyan o'zgartirishlar kiritish.

12. O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi hamda kuch tuzilmalari hamkorligida harbiy jurnalistika tadrijiy rivojiga kommunikativ hodisalarning ta'sirini bakalavriat, magistratura, doktorantura ta'limida o'rganadigan, monitoring qilib boradigan "Harbiy jurnalistika" ilmiy-tadqiqot laboratoriyasiga asos solish.

O'zbekiston harbiy jurnalistikasi tarixi, tadrijiy rivojida kommunikativ hodisalarning muhim omillari, mudofaa siyosatida axborotning ijtimoiy ahamiyati, ziddiyatli vaziyatlardan media mahsulot tayyorlashda jurnalist mahorati va faoliyatining o'ziga xosligi bilan bog'liq masalalar borasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ekstremal vaziyatlardan axborot tarqatishning "CNN effekti" konsepsiyasi milliy modulini yaratish, unda mediasavodxonlikni oshirish, mustaqil jurnalistikani qo'llab-quvvatlash, OAVda turli fikrlarni yoritish va jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali davlat institutlari faoliyatining favqulodda holatlardagi samaradorligiga ta'sir o'tkazish.

2. Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentida O'zbekistonning mudofaa siyosatini, mudofaa sanoatidagi yangilanishlarni, dunyoda kechayotgan muhim harbiy-siyosiy voqealarni yoritadigan, podkastlar orqali muhokama qiladigan internet nashrini tashkil etish kerak. Bu mudofaa sohasidagi islohotlardagi shaffoflikni ta'minlaydi. Aholining ongiga axborot-mafkuraviy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga qaratilgan ilg'or texnologik yechimlarni qo'llashda qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi.

3. O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti "Harbiy va sport jurnalistikasi" kafedrasining Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" Birlashgan tahririyatidagi "Harbiy jurnalistika" bo'limida harbiy sharhlovchilar klubini tashkil etish hamda talabalar ishtirokida ekstremal holatlar, qurolli to'qnashuvlar bo'yicha mahorat darslarini o'tkazish.

4. O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik masalalari, ekstremal vaziyatlarni o'rganish va ijtimoiy axborot almashinuvini ta'minlash maqsadida mustaqil tadqiqotlar olib boradigan nodavlat institutiga asos solish.

5. O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti va Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi - TIKa hamkorligida "Muxbir tayyorlash dasturi" doirasida "Harbiy muxbir ta'limi" treningini yo'lga qo'yish. Mazkur treningga asoslanib, qurolli to'qnashuvlar, ekstremal, favqulodda vaziyatlarda harbiy jurnalistlar tajribalarini harbiy jurnalistika ta'limiga integratsiya qilish.

6. O'zbekistonda harbiy jurnalistikaning tarixiy aspektlari, mustamlaka va sho'ro davrida Turkistondagi (O'zbekistonda) harbiy nashrlar, mustaqillik davrida harbiy jurnalistika taraqqiyoti bilan bog'liq ilmiy, amaliy jarayonlar,

harbiy jurnalistika rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlar haqidagi ma’lumotlar qamrab olingan “Harbiy jurnalistika” nomli so‘zlik tuzish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.30/30.12.2019. Fi1.14.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ ЖУРНАЛИСТИКИ
И МАССОВЫХ КОММУНИКАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА**

**УНИВЕРСИТЕТ ЖУРНАЛИСТИКИ И МАССОВЫХ
КОММУНИКАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА**

САФАРОВ АЛИЖОН ИТОЛМАСОВИЧ

**ФАКТОРЫ ВЛИЯНИЯ КОММУНИКАЦИОННЫХ ЯВЛЕНИЙ НА
РАЗВИТИЕ ВОЕННОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ**

10.00.09 – Журналистика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.1. DSc/Fil967.

Диссертация выполнена в Университете журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.uzjoku.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научные консультанты: **Халим Саидов**
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Юсуф Хамдамов,**
доктор филологических наук, профессор

Амрулло Каримов,
доктор филологических наук, доцент

Акмал Кодиров,
доктор военных наук, доцент

Ведущая организация: **Каракалпакский государственный университет имени Бердаха**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.30/30.12.2019. Fil.14.01 по присуждению ученых степеней при Университете журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Адрес: 100147, г.Ташкент, Центр-5, дом 88. Тел.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Адрес: 100147, г.Ташкент, Ц-5, дом 88. Тел.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.

(Протокол реестра № _____ от «___» _____ 2025 года).

Шерзодхон Кудратходжа
Председатель
научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н (DSc)., профессор

Фаррухбек Олимов
Научный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.н (DSc)

Нозима Муратова
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В глобализированном мире информация все больше становится производственной силой общества, одним из неисчерпаемых ресурсов. Феномен информационной войны, который в конце двадцатого века вывел процесс коммуникации на новый уровень, начал представлять серьезную угрозу национальной безопасности государств. Превращение СМИ в инструмент, определяющий динамику коммуникативного пространства и отражающий характер политического строя, создает новые проблемы для государства, общества и личности. В частности, в результате столкновения геополитических интересов в медиапространстве и ведения «информационных войн» возникают очаги войн, военных конфликтов, беспорядков и волнений. В таких условиях подчеркивается важность и актуальность развития военной журналистики, изучения в международной практике влияния на эту сферу коммуникативных факторов, связанных с экстремальными ситуациями.

В мировом масштабе проводится множество научных исследований о роли коммуникативных факторов в постепенном развитии военной журналистики, о важных принципах коммуникативных явлений в военных конфликтах, о социальном значении информации в условиях войны и мира, в конфликтных ситуациях. Также актуально проведение исследований в направлениях, связанных с определением особенностей коммуникативного феномена военных столкновений, специфики коммуникативной стратегии в медиатизации боевых действий, изучением роли социальных институтов в военном обмене информацией.

В последние годы, исходя из особенностей театра военных действий, в нашей стране уделяется особое внимание последовательному продолжению реализации на основе Стратегии «Узбекистан – 2030» приоритетных задач, таких как модернизация Вооруженных Сил, повышение интеллектуального потенциала военнослужащих, воспитание молодежи в духе патриотизма. Поскольку в нынешней ситуации, когда в мировом масштабе обостряются различные угрозы и вооруженные конфликты, повышение боевого потенциала наших Вооруженных Сил, физической и духовной готовности военнослужащих становится как никогда актуальным²⁴. Исходя из этого, можно сказать, что возрастает необходимость научного исследования тенденций, связанных с влиянием коммуникативных явлений, связанных с вооруженными конфликтами, на эволюционное развитие военной журналистики Узбекистана, роли коммуникативных явлений в условиях военных конфликтов, социального значения информации в оборонной политике страны, современных подходов.

²⁴ Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 33 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куні муносабати билан байрам табриғи. <https://president.uz/uz/lists/view/7812>. Дата обращения: 06.04.2025.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в законах Республики Узбекистан «О гарантиях и свободе доступа к информации», «О принципах и гарантиях свободы информации», «О защите профессиональной деятельности журналиста», «О средствах массовой информации», указах Президента страны «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года № УП-4947, «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию информационной сферы и массовых коммуникаций» от 2 февраля 2019 года № УП-5653, «О Стратегии «Узбекистан – 2030», постановлении главы государства «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года № ПП-2909, а также в ряде других нормативно-правовых актов.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с первым приоритетным направлением развития науки и техники республики: «Формирование и пути осуществления системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации²⁵.

Роль и значение, проблемы военной журналистики в противоречивых ситуациях, вооруженных конфликтах, развитие военной журналистики, важные факторы, влияющие на ее становление, связь с теориями прессы, вопросы объективности в распространении информации, исследования по получению и обработке информации проводятся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе в Военном университете имени князя Александра Невского; Московском государственном университете имени М.В. Ломоносова; Санкт-Петербургском гуманитарном университете профсоюзов; Воронежском государственном университете; University of Glasgow; Institute for War & Peace Reporting; Anadolu Agency (AA); Center for Global Peace Journalism (USA); University of Illinois; Dominican University (DU); Казахском национальном университете имени аль-Фараби; Узбекском государственном университете мировых языков; Университете журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Узбекистан).

На основе исследований, направленных на научное обоснование роли военной журналистики в развитии демократического общества, факторов ее развития, процессов интеграции с конфликтологией, динамических изменений в экстремальных ситуациях, в частности, на фоне вооруженных конфликтов, получен ряд научных результатов, в том числе: изучены научно-

²⁵ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации осуществлен по таким источникам, как <http://vumo.mil.ru>; <https://msu.ru>; <https://www.gup.ru>; <http://www.vsu.ru>; <https://www.gla.ac.uk>; <https://iwpr.net>; <https://www.aa.com.tr/en/newsacademy/war-journalism>; <https://www.peaceinsight.org/en/organisations/center-for-global-peace-journalism>; <http://www.press.uillinois.edu>; (University of Illinois Press); <http://www.dom.edu>; <https://farabi.university/university>; <https://www.uzswlu.uz/>; <https://uzjoku.uz/uz>

практические аспекты интеграции вопросов военной сферы и безопасности в журналистику (Военный университет имени князя Александра Невского); проведен анализ и инновационные методы, исследования, направленные на помощь общественности в понимании военных операций (Institute for War & Peace Reporting); обоснованы практические аспекты повышения квалификации военных журналистов в условиях вооруженных конфликтов (Anadolu Agency (AA)); изучена роль информационных служб в освещении военной сферы (Казахский национальный университет имени аль-Фараби); обоснованы тенденции развития военной журналистики (Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана), проанализированы проблемы, связанные с деятельностью журналиста в экстремальных условиях (Узбекский государственный университет мировых языков).

Проводится ряд исследований по изучению тенденций, сформировавшихся в практике военной журналистики в эпоху глобализации, особенностей деятельности военного журналиста в вооруженных конфликтах, экстремальных условиях, процессов развития военной журналистики в медиапространстве по следующим приоритетным направлениям: изучение влияния цифровых технологий на перспективы военной журналистики; исследование изменений в журналистской этике в процессе войны, вооруженных конфликтов; изучение вопросов дезинформации, фейка, «языка вражды» и пропаганды в военных конфликтах; исследование психологических аспектов журналистов в военных конфликтах.

